

**YOSHLAR ORASIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING IJTIMOIIY
ONG VA QADRIYATLARGA TA'SIRI**

Matkarimova Jamila Durdiyevna

TDTrU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası

f.f.d.(DSc), v.b.professor.

Baxodirov Vosilxon Nodir o'g'li

TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi

2 bosqich talabasi.

Xolmurodov Agzam Aral o'g'li

TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi

2 bosqich talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy ong va qadriyatlarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va axloqiy qadriyatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylangan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari, yoshlarning bu platformalardagi faoliyati, shuningdek, ularning ongida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish va yoshlar ongini sog'lom shakllantirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, ijtimoiy ong, qadriyatlar, axborot makoni, madaniy ta'sir, raqamli muhit, axloqiy tarbiya.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hayotning barcha jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida keng tarqalib, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu maqolada aynan shu jarayonning mohiyati, xavf-xatarlari va istiqbollari tahlil qilinadi.



"Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" Bugungi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilarning aksariyati "Odnoklassniki.ru", "Facebook", "V.kontakte", "Moymir" kabi tarmoqlarda o'z profillariga ega. Biroq keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda. So'rovnomani o'tkazishdan maqsad ham mazkur masala yuzasidan o'quvchilarimizning fikrlarini o'rganish edi. Bir hafta davomida 110dan ortiq ishtirokchi "Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?" so'rovnomasiga o'z munosabatlarini bildirishdi. Qizig'i shundaki, o'quvchilarning 32 foizi ushbu tarmoqlar do'stlar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma'qullagan bo'lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan. Demak, bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda. So'rovnomaning to'liq natijasi bilan tanishing: Savol: Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo'lmish sotsial tarmoqlarni chetlab o'tolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko'radi. Kimga internetda o'z rasmlarini qo'yish, olis masofadagi do'stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o'yinlar o'ynash, musiqa tinglash va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish, statuslarni tinmay o'zgartirish yoqmaydi deysiz?

Facebook, Instagram, TikTok, Telegram, X (sobiq Twitter) kabi platformalar yoshlarning asosiy muloqot vositasiga aylangan. Ushbu tarmoqlar orqali yoshlar nafaqat axborot oladilar, balki o'z fikrlarini bildiradilar, shaxsiy qiziqishlarini namoyon qiladilar, yangi do'stlar orttiradilar. Bu esa, tabiiyki, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotga munosabatini shakllantiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri:



1. Yoshlarning o'z turmush tarzlarini boshqalarniki bilan qiyoslash natijasida o'zini hurmat qilish pasayadi. Boshqalarning hayoti yorqinroq ko'rinishi yoshlarda norozichilik hissini uyg'otishi.

2. Doimiy ravishda yangiliklar va xabarlarni kuzatish ruhiy charchashga olib kelishi.

3. Internetga qaramlilikning ortishi, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanish vaqtni behuda sarflashga va jismoniy faollikning kamayishiga olib keladi. So'nggi yilda depressiya ko'rsatkichi (%) Ijtimoiy tarmoqlardan kundalik foydalanish (soat)

4. Kiberbulling ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar haqorat, tahdid yoki zo'ravonlikka uchrashi. (Kiberbulling qurboni bo'lgan kishining shaxsiy ma'lumotlarini, rasmlarini yoki videolarini tarqatish, uni sharmanda qilish yoki obro'siga putur yetkazish, yolg'on ma'lumotlar tarqatish) Kiberbulling jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, shu jumladan: Depressiya, tashvish, o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o'qishga konsentratsiya olmasligi, o'ziga zarar yetkazish va hatto o'z joniga qasd qilishga olib kelishi.

5. Haqiqiy hayotda yetarli ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishning yo'qolishi o'smirlarni ijtimoiy tarmoqlarga qaram qilishi mumkin, bu esa ularni yanada izolyatsiya bo'lishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rilgan vaziyatlardan kelib chiqib yoshlarning ruhiy salomatligini qo'llab quvvatlash uchun quyidagicha choralar qo'llasak bu psixologik bosim va zo'riqishni kamaytiradi.

- Media savodxonligini oshirish: Yoshlarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda tanqidiy fikrlashni o'rgatish.

- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtlarini saralash va cheklash. Yoshlarni real hayotda faol bo'lishga undash va ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadigan vaqtni kamaytirish.

- Ota-onalar va o'qituvchilar bilan uzluksiz hamkorlik. (Turli xil tadbirlar, ko'rik tanlovlarda ota-onalar ishtirokini jalb qilish) Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi, lekin ulardan maqsadli foydalanish kerak. Ruhiy



salomatlikni saqlash uchun yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ongli va tanqidiy fikrlashga o'rgatish muhimdir. Shu bilan birga, ularga psixologik yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.¹

O'zbekistonda, ayniqsa 16–17 yoshli o'smirlar orasida klinik depressiyaning (bu ruhiy kasallik bo'lib, odamning kayfiyati, energiyasi, ishtahasi, uyquasi va umuman hayotga bo'lgan qiziqishi pasayishi bilan tavsiflanadi. Bu holat odatdagidan ko'ra kuchliroq va uzoq davom etadi, shuningdek, odamning kunlik faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin) ko'payishi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. So'nggi o'n yil ichida bu holatning keng tarqalishi bir qator ijtimoiy, psixologik va tashqi omillar bilan bog'liq bo'lib, o'smirlar orasida o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi, oilaviy muammolar, ijtimoiy bosim, o'ziga nisbatan salbiy munosabatlar, ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar depressiyaning ko'payishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Ushbu sohada tadqiqot ishlarni olib borgan olimlar va olimalar quyidagi fikr mulohazalarni bildirishgan.

To'xtasinova G. "Yoshlarning ijtimoiy faolligi va kommunikativ madaniyati". Mazkur tadqiqotda yoshlarning ijtimoiy faolligi, virtual muloqotdagi ishtiroki va bu jarayonning ijtimoiy ong shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ularning jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Castells M. "Axborot asri: Iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat". Manuel Kastels global axborot makoni va raqamli madaniyat ta'sirini tahlil qiladi. Bu asar ijtimoiy tarmoqlarning shaxsiy identifikatsiyaga va qadriyatlar tizimiga ko'rsatadigan ta'sirini tushunishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U yoshlarning global madaniy muhitga integratsiyalashuvi haqida muhim fikrlar beradi.

Zokirova N. "Zamonaviy axborot makonida yoshlarning axloqiy ongini shakllantirish". Muallif yoshlar orasida axborot madaniyatini rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash yo'llarini ochib beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy

¹ Beruniy Alimov "Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli" maqolasidan 345-358-b Educational Sciences jurnali



axborot oqimi va uning ta'siri haqida aniq tahlillar keltiriladi. Bu ish mavzu bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Murodova M. "Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlarning axloqiy qadriyatlari". Ushbu maqolada muallif ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida tarqalgan muayyan qadriyatlar tizimini o'zgartirishi, ba'zan esa buzishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, ko'r-ko'rona taqlid, mashhurlikka intilish va "like" sindromi singari hodisalar asosida ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar ko'rsatib o'tilgan.²

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy ong va qadriyatlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday ta'sirni anglash, uni boshqarish va yoshlarni axborot makonida ongli harakat qilishga o'rgatish uchun nazariy va amaliy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz kerak. Yoshlarning ruhiy ma'naviy olamini turli xil buzg'unchi va zararli g'oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Internet yoshlar manfaati uchun xizmat qilishi kerak. Agar ularga axborot savodxonligi asoslari o'rgatilsa, bu eng istiqbolli yoshlar bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun zamonaviy axborot olish manbasi bo'lishi bilan birga, ularning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi kuchli vositadir. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va jamiyat a'zolari yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Ijtimoiy tarmoqlardan ongli va maqsadli foydalanish madaniyatini targ'ib etish yoshlar ongining sog'lom shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1."Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni .
2016-yil 24-avgust

² Qodirov U."Yoshlar va axborot psixologik xavfsizlik" Toshkent. 2014-yil 456-462-b



2. Qodirov U. "Yoshlar va axboriy psixologik xavfsizlik" Toshkent. 2014-yil 456-462-b
3. Пянкова Н.Г., Матвиюк В.М. Влияние глобальной сети интернет на психику подростков // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2014. Т.530. С. 36–40.
4. Собкин В.С., Федотова А.В. Подросток в социальных сетях: к вопросу о социальнопсихологическом самочувствии // Национальный психологический журнал. 2018. № 3(31). С. 23– 36.
5. Beruniy Alimov "Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli" maqolasidan 345-358-b Educational Sciences jurnali